

Aqsh Va Vetnam Urushi Hamda Zamonaviy Qurolli To'qnashuvlarda "Okop Jangi" Ning O'Ziga Xosligi

Xodjixodjayev Farhodjon Mahmudjonovich,

O'zbekiston Respublikasi Harbiy xavfsizlik va mudofaa universiteti Qurolli Kuchlar

Bosh shtab fakulteti Umumiy taktika kafedrasi o'qituvchisi, tar.f.f.d. (PhD), podpolkovnik

Annotatsiya: ushbu maqolada AQSh va Vetnam urushi hamda bugungi kunda bo'lib o'tayotgan jangovar harakatlardagi "okop jangi" ning tarixiy jarayonlari va ularning rivojlanish tendensiyasi yoritilgan.

Kalit so'zlari: okop jangi, usti yopiq okoplar.

Abstract: this state examines the historical processes of "trench warfare" and development trends in the American-Vietnamese war and today's hostilities.

Key words: trench warfare, closing in trenches.

Аннотация: в данной статье рассматриваются исторические процессы «окопной войны» и тенденции их развития в американо-вьетнамской войне и сегодняшних боевых действиях.

Ключевые слова: окопная война, закрытий окопами.


Dunyoda sodir bo'layotgan qurolli to'qnashuvlar tahlili shuni ko'rsatmoqda-ki, zamonaviy janglarda yangi tipdagi qurollar va harbiy texnikalarning keng qo'llanilayotganligi, mavjud taktik harakatlarning o'zgarishiga va takomillashishiga olib keldi. Natijada yangi taktik usullar ishlab chiqilib, jangovar harakatlarga tadbiq etilmoqda. Harbiy sohada bunday o'tkir va dolzarb muammolar bizdan zamonaviy urushlarning asosiy tamoyillarini har tomonlama o'rganish, uni chuqur tahlil etish bilan birga, zaruriy xulosalar chiqarish hamda o'z qo'shinlarimiz amaliyotiga joriy qilishni, shuningdek, qo'shinnlarni tayyorlash va jangovar qo'llash tizimini zamonaviy jangovar harakatlar talablariga moslashtirish, yangi taktik usul va uslublarni ishlab chiqishni muntazam o'zlashtirib, takomillashtirib borishni talab etmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti, Qurolli Kuchlar Oliy Bosh Qo'mondoni Sh.M. Mirziyoyev: "Dunyoda, shu jumladan atrofimizda, xalqaro terrorizm, ekstremizm va radikalizm xavfi ortib bormoqda, ba'zi bir mintaqalarda qurolli mojarolar to'xtamayapti. Bunday notinch vaziyat bizdan paydo bo'layotgan tahdidlarga munosib javob harakatlarini talab etmoqda. O'zbekistonning tinch va barqaror o'sishini ta'minlash maqsadida Qurolli Kuchlarimizni isloh qilish, ularning jangovar shayligi va jangovar qobiliyatini oshirish bo'yicha ishlarimizning ahamiyatini belgilab beradi ..." [1], - deb ta'kidlab o'tgan edilar.

Tarixga nazar solsak, bo'lib o'tgan urushlarning soni 15 000 dan ortgan bo'lsada, uning miqyosi, shakli, olib borish uslubi hamda usullarining ko'lami va xususiyatlari o'zgarib, davrlar bo'ylab takomillashib, rivojlanib kelganligini kuzatish mumkin. Undagi taktika usullardan biri bu "okop janggi" ekanligini alohida ta'kidlash joiz. Aynan "okop janggi" taktik usullar ichida muhim ahamiyat kasb etib, mudofaa jangining asosiy usullaridan biri hisoblangan.

Darhaqiqat, bugungi kunda shiddat bilan dunyoda nobarqarorlik avj olib bormoqdaki, uni bir sohada yoki bir makonda jilovlab yoki ushlab turib bo'lmay qoldi. Yer yuzida "**Xavfsiz hudud – Xavfsiz makon**" degan tushunchalarning keskin yo'qolib borayotganligi, u har bir insonga, har bir jamiyatga, har bir davlatga yoki har bir mintaq, qolaversa, har bir materikka ham "xavfsiz holat" birinchi navbatda zaruriy ehtiyoj ekanligi, xavfsiz holatga ega bo'lish yoki erishish nafaqat bir kishiga, bir jamiyatga yoki bir davlatga bog'liq emasligi bugungi kunda yanada aniq va kundek ravshan bo'lib bormoqda [2].

Bu borada yangi tarixdan AQSh va Vetnamda bo'lib o'tgan urushga nazar solish maqsadlidir. 1965–1975-yillarga AQSh va Vetnam urushi bo'lib o'tdi. Bu urushda okop jangining rivojlanishi quyidagi misollar bilan ko'rish mumkin. AQSh qo'shinlari Vetnamga



siyosiy maqsadlariga erishish uchun urush boshlaganligi tarixdan ma'lum. AQSh Vetnamda mag'lubiyatga uchradi va siyosiy maqsadlariga erisha olmadi. Vetnam ushbu g'alabaga qanday erishgan? Bu savolga javob topish uchun Vetnam va AQSh urushiga e'tibor qaratamiz.

AQSh qo'shinlari 1965-yili Vetnam davlatiga hujumni havodan bombardimon qilishdan boshlaydi. Havo hujumida 7 million tonnaga yaqin bomba sarflanadi. Shahar va qishloqlar, avtomobil va temir yo'llari hamda ko'priklar to'liq vayron qilindi. 10 ming km² o'rmonli maydon yondirib yuborildi. AQSh umumiy hisobda 540 ming askar olib kiradi. Qisqa vaqt ichida Vetnam aholisidan 180 mingga yaqin aholi halok bo'ldi. Bunday ko'rsatkichlardan so'ng, o'z-o'zidan savol tug'iladi. AQSh qo'shinlari qanday qilib Vetnamda mag'lubiyatga uchradi? Buning uchun Vetnamning geografik joylashuviga e'tibor qaratish lozim. Vetnamning geografik joylashuvi asosan zich o'rmonli (jungli), botqoqliklar, suvli, ariq va ko'llar, eng asosiysi yer osti yo'llari juda ko'pligi bilan ahamiyatlidir. Bular orasida yer osti yo'llaridan jang olib borishda Vetnam partizanlari unumli foydalanganligi asosiy omil sifatida ko'rish mumkin. Bizning mavzu doiramizda aynan okop jangining o'ziga xosligi, yer osti tunnellarga aylanganligi bilan muhimdir.

AQSh qo'shinlari havo hujumidan so'ng o'z qo'shinlari bilan piyoda jang olib borishga majbur bo'ldi. Hududda jangovar mashinalarning yurish imkoni bo'lmaganligi sababli, qo'shinlar piyoda harakatlanadi va juda ko'p qopqonlarga, to'siqlarga va zaxarli ilon hamda chayonlarga duch kelishi natijasida talafotlar ko'ra boshlaydi. Ma'lumotlarga ko'ra, AQSh qo'shinlarida yiliga 58 mingdan ortiq askar halok bo'ladi, 2300 ta askar bedarak yo'qoladi, 150 mingdan ortiq askar yarador bo'ladi [2]. Bu ko'rsatkichlarning keltirilishiga asosiy sabab nima edi?

Vetnam partizanlarining asosan yer osti tunnellardan keng foydalangan. Vetnam tunnellari boshqalardan keskin farq qilib, chuqurligi 50 metrgacha bo'lganligi, shuningdek, tunnellar bir necha qavatdan tashkil topgan bo'lib, ichki tuzilish chizmasida inson uchun barcha sharoitlar, xususan, turli xil ko'rinishdagi qopqon nuqtalari, oziq-ovqat saqlash joylari, dam olish joylari, suv zaxiralari, havo aylanuvchi vintelyatsiyasi, zaxira chiqish yo'laklari, xatto madaniy xordiq chiqarish va bolalarni o'qitish uchun sinf-xonalari hamda suv zazira saqlash joylari yaratilganligi, yer ustida joyning taktik xususiyatlaridan kelib chiqib niqoblantirilganligi hamda qopqonlar dushman uchun sezilarsiz darajada qo'yilganligi bilan ajralib turadi. AQSh askarlari tunel ichiga granata yoki zaxarli tutun tashlashning imkoni bo'lmagan. Chunki tunnelning tuzilishi qavatlardan tashkil topgan bo'lib, har bir qavat bir necha bo'g'inlardan iborat edi. Bir bo'g'indan ikkinchi bo'g'inga o'tishda eshik misoli yopqichlar mavjud bo'lgan.

Vetnam partizanlari tomonidan quyidagi qo'lbola qopqonlari yasalgan:

botqoqlik va ariqlar ichidagi simga tortilgan granatalar;

tekislik va o'rmonlar ichiga chuqurlik (yama)lar qazilib, ichki qismiga bambuqdan yoki metaldan nayzasimon uchli tayoqchalar o'rnatilgan, ularning uchi zaxarlangan bo'lib, qolgan askarlarga tarqalishiga sabab bo'lgan;

o'rmon yo'llariga simga tortilgan osma toshlardan ham qopqonlar qo'yishgan;

zaxarli ilon va chayonlardan ham keng foydalanishgan;


chelak qopqonlar;

shar simon qopqonlar;

dala yo'llariga piyodaga qarshi granatalar qopqon sifatida qo'yilgan;

bambukga o'rnatilgan mixli qopqonlar, ular asosan uyga kirish joylariga o'rnatilgan bo'lib, kirgan askarlarga zarar yetkazgan va yaralangan;

yer ostiga oyoq bilan bosilganda ishga tushuvchi o'q otar qurollar, bu qurolarga turli xil o'qlar yoki snaryadlar o'rnatish bilan qo'llanilgan, ushbu qurol yer qobig'idan 5 sm past qilib o'rnatilgan. Dushman oyog'iga zarar yetkazgan va safdan chiqishiga sabab bo'lgan;



tunnellar kirish joyiga piyodaga qarshi minalar ham qopqon [3] sifatida o'rnatilgan.

AQSh qo'shinlari tunnellardan katta talafotlar ko'rgandan so'ng Jungli o'rmonlariga juda katta miqdorda bombalar yog'diradi. O'rmonning juda katta qismi yonib ketadi. Shu bilan birga o'rmonga kimyoviy moddalarni ham qo'llaydi. Urush 3 yilga cho'zilib ketadi. AQSh qo'shinlari katta talafotlar bilan Vetnamni takr etadi.

Shu o'rinda Amerika generali Kertes Lemey: "biz yerda operatsiyasi o'tkazmasdan ularga tosh davrida havodan va quruqlikdan bombardimon qildik", deb ta'kidlagan.

Bugungi kunga kelib, "okop janggi"ning ichki va tashqi jihatlari oldingilaridan tubdan farq qiladi. Chunki qo'shinlarda yangi zamonaviy qurol (UUA, dron)larga qarshi jang olib borish imkonini beruvchi vositalar bilan ta'minlanmoqda. Shuningdek, taktik harakatlar nafaqat shaharlarda balki muhim operativ yo'nalishlarda olib borilayotganligi "okop janggi"ning sifatli tashkil etish va samarali olib borish zarurati paydo bo'lmoqda [3]. Shu nuqtai nazardan rivojlangan mamlakatlarning qo'shin qo'mondonlari va shtab ofitserlari "okop janggi"ni sifatli tashkil etish, uni foydali olib borishga alohida e'tibor qaratmoqda.

2025-yilga kelib, Rossiya va Ukraina o'rtasida bo'lib o'tayotgan qurolli to'qnashuvlar ikki tomonning ham keng frontda tarqoq mudofaa va hujum xarakteriga ega bo'lgan operatsiyalar olib borayotganligi, shuningdek, rota, vzvod yoki otryadlar uchun front bo'ylab javobgarlik hududlari belgilangan standartlarga ko'ra kattaroq berilayotganligi (5 kmdan 20 kmgacha) va bir-birisining oralig'i front bo'ylab cho'zilib [4] ketganligi, buning oqibatlarida jang olib borishning yanada yangi o'ziga xos tamoyillar va talablar vujudga kelganligini kuzatish mumkin.

Keng frontda qo'shin va bo'linmalar tayanch punktlarida jang olib borishining o'ziga xos xususiyatlari, xususan, jang olib borish frontining yo'qligi, har tomondan to'satdan hujum bo'lish ehtimoli yuqoriligi bilan ajralib turadi. Shuningdek, "okop janggi"ning asosiy jihatlardan yana biri bu ikki tomon o'z qo'shinlarida raketa va granatalar o'rnatilgan UUA va dronlarni hamda kamekadze-dronlarini keng qo'llashayotganligi bilan ahamiyatlidir. Buning natijasida ikki tomon qo'shinlarida talafotlar ko'payib ketdi. Buning oldini olishga qaratilgan bir qator kompleks tadbirlar amalga oshirdi.

Ukraina o'z qo'shinlarida mudofaa tayanch punktlarini tashkil etuvchi okoplarning utski qismini beton plitalar bilan yopish evaziga Rossiya qo'shinlari tomonidan UUA va dronlarga o'rnatilgan (kamekadze-shahid dronlari) raketalar qo'llashiga qarshi "okop janggi"ni olib borish samaradorligini oshirishga erishmoqda. Bu o'z navbatida UUA va dronlar tomonidan yuqoridan beriladigan zarbalarni oldini olish va ularni o'z vaqtida zararsizlantirishga imkon berdi.

Shu bilan birga, pozitsion mudofaaga qo'yiladigan asosiy talab, "bir qadam orqaga yo'l yo'q" tamoyillari ishlay boshlaganligini anglatadi.

Yuqoridagilardan kelib chiqib quyidagilarni **xulosa** qilish mumkin. Bo'lib o'tgan urushlarda "okop jang"larining yuzaga kelishi va tizimli takomillashuvi sifatida quyidagilarni keltirish mumkin:


qo'shinlarning tashkiliy shtat tuzilmasi doimiy shakllantirilib, kutilayotgan jang va operatsiyalarga moslashtirilib borilganligi;

qo'shinlarni yangi tipdagi qurollar va harbiy texnikalar bilan doimiy ta'minlanganligi;

qo'shinlarni boshqarishda yangi texnologiyalardan foydalanganligi;

joyning geografik va taktik xususiyatlaridan kelib chiqqan holda qo'shinlarni joylashtirish, jangovar qo'llash va boshqa omillardan unumli foydalanganligi;

dushman kuch va vositalari nisbatini hamda jangovar imkoniyatlarini nozik tomonlariga o'z vaqtida zaruriy zarbalarni bera olish qobiliyatini shakllantirilganligi.



Foydalanilgan adabiyotlar

1. Mirziyoyev, Sh.M. Dunyoda, shu jumladan atrofimizda, xalqaro terrorizm, ekstremizm va radikalizm xavfi ortib bormoqda. [Elektron resurs] / Sh. Mirziyoyev. 2022. – URL.: <https://kun.uz/news>. Murojaat sanasi: 2025.10.10.
2. Xodjixodjayev F.M. Harbiy xavfsizlik tushunchasi evolyusiyasining dastlabki bosqichi va uning davlatchilik taraqqiyotida tutgan o‘rni. F.M. Xodjixodjayev // O‘R QQ Akademiyasi harbiy ta’lim va fanda innovatsiyalar ilmiy – axborot jurnali, 2021. 2(12). – B. 131-135.
3. Internet materiallaridan (<http://www.zw-observer.narod.ru>). Murojaat sanasi: 2025.11.10.
4. “Ukraina urushi: Nima uchun Birinchi Jahon urushidagi taqqoslashlar Rossiyaning kuchli tomonlarini etarlicha baholamaslikka olib kelishi mumkin”. Suhbat. 2023-yil 18-aprel. . – URL.: <https://kun.uz/news>. Murojaat sanasi: 2024.11.10.